

ESDALIK SOVG'ALAR YASASH VA BEZATISH

Haydarov Abdurashid Qo'chqorovich

Yangiyer pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada esdalik sovg'a yasash va bezatishning nazariy asoslari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Sovg'a, quti, yasash, metod, texnologiya.

Bolalar qo'li bilan yasaladigan har qanday o'yinchoq esdalik sovg'asiga aylanishi mumkin. Buning uchun kerakli materiallar tayyorlasa bo'ladi. Masalan: qog'ozdan tabriknoma, taklifnoma, gilamcha kabi narsalarni. gazlamadan kashta tikish. savatcha tayyorlash, igna tutgich tikish, charmdan xaltachalar yasash, ko'zoynak uchun g'ilof tikish, bo'sh qutilardan chiroyli sandiqchalar yasash mumkin. Bunda qo'l ostimizda barcha ish qurollari bo'lishi lozim. Yasalgan o'yinchoq sovg'alarni chiroyli qilib bezatish talab etiladi. Zar qog'ozdan to'qilgan savatchani yasash. Savatchani yasash uchun kerakli ish qurollari: zar qog'ozlar, konfet qog'ozlari, chizg'ich, qaychi, flomaster, karton qog'oz, igna, yupqa ipga o'xshash sim. Bajarish usuli. 1-bosqichda 1 metr yaltiroq qog'oz olib, uni enidan bo'yiga qarab 10 sm oralig'ida qirqib olinadi, so'ngra undan eni 3 sm li bo'laklar qirqib olinadi. 10 sm Karton qog'oz Karton qo'yiladi. Zar qog'oz 2-bosqich. Qirqib olingan eni 3 sm li zar qog'ozning ikki cheti buklab olinadi, orasiga uzunligi 10 sm, eni 1 sm karton qog'oz qo'yib zar qog'oz bilan o'rab olinadi. 3-bosqich. Buklab olingan karton va zar qog'ozning ikki tomoni 4 marotaba o'rtaga qarab teng miqdorda buklanishi lozim. Shunday tasmacha hosil bo'ladi: 4-bosqich. Shunday tasmachalardan 50—100 ta, hattoki yasaladigan buyumingizga qarab 500 tagacha yasab olinadi. 5-bosqich. 1-bo'lak tasmacha gorizontol holatda 2-si unga vertikal holatda kiydiriladi u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: Shu tariqa 4—5 qator to'qib olingach, savatcha hosil qilish uchun yumshoq qizil simni ninaga o'tkazib, tasmachalarni birbiriga ulab chiqiladi va cheti ham bir-biriga kirgizib ulanadi. 6-bosqich. Tayyor namunani taqdim etsak bo'ladi. 7-bosqich. Savatchaning tag qismini karton qog'oz bilan dumaloq yoki to'rtburchak shaklda kesib, ich tomoniga zar qog'oz yopishtiriladi, chetlari bigiz yordamida teshib olinadi va yumshoq sim orqali tikib chiqib ulanadi. 8-bosqich. Savatchaning bandi, ya'ni to'qilgan tasmacha o'rnatiladi. Qog'ozdan archa o'yinchoqlarini yasash. Talabalar Yangi yil bayrami haqidagi ko'pgina ertaklar, multfilmlar, she'rlar, hikoyalarni yaxshi bilishadi. Bu bayramda archani chiroyli bezash va Qorbobo, Qorqiz mehmon bo'lib kelishi bolalarni quvontiradi. Archani chiroyli bezatishda bolalarning o'zlari archa bezaklari va o'yinchoqlarini yasay bilishlari kerak. Qog'ozdan qor parchalari, girlyandalar, osma o'yinchoqlar, yelimsiz archa o'yinchoqlari, chiroqlar yasaladi. Bu o'yinchoqlarni yasash uchun quyidagi: rangli qog'oz, yelim qaychi, har xil pechenye, konfetlarning zar qog'ozlari, turli xil gul qog'ozlar, kalka ishlatiladi. Qor parchalarni yasash uchun zar yoki oq qog'ozdan kvadrat hosil qilib olamiz va uni 6—8 qirrali qilib buklab chiqamiz. Hosil bo'lgan uchburchak shaklga naqsh elementini chizib, qirqib chiqiladi. So'ngra qog'ozni ochib, tekis holatga keltiriladi. Qor parchasi tayyor bo'ldi. Zanjirlarni tayyorlash uchun 5—6 xil rangli qog'ozdan ingichka tasmalar qirqiladi. Qalinligi 2 sm, uzunligi esa 8 sm qilib olinadi va ular ketma-ket bir-birining orasidan o'tkazib yelimlanadi. Zanjirning ikkinchi ko'rinishi yelimsiz bajariladi. Bunda qog'oz hajmi kattaroq olinadi va undan har xil shakllar qirqiladi. Bir-biriga kiygizib chiqiladi.



Osma o'yinchoqlar yasash uchun har xil chiroyli o'yinchoqlar tanlanadi va ularning shakli qog'ozga tushiriladi. Shakllar qirqib olinadi va yelimlashdan oldin ular orasidan ip yoki sim o'tkaziladi, shu tariqa chiroq va girlyandalar yasaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Elchiboyeva, N., & Tursunnazarova, E. T. (2022). TEACHING GRAMMAR THROUGH AUTHENTIC TEXTS. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 205-207.
2. Yusubjonova, M. I., Vallamatova, S. S., & Tursunnazarova, E. T. (2022). CONSECUTIVE TRANSLATION AND ITS PECULARITIES. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 50-55.
3. Tursunnazarova, E. T. (2022). THE USE OF LITERATURE IN THE LANGUAGE CLASSROOM. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 196-200.
4. Yuldasheva, N. E., Yusupova, S. T., Bakhtiyarov, M. Y., Abdujabborova, M. A., & Abdurashidova, N. A. (2021). Pragmalinguistic aspects of compound nouns in English and Uzbek. *Linguistics and Culture Review*, 5(S2), 1431-1438.
5. Yakubovich, B. M. (2021). The role of transposition in the derivation of related words. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 301-308.
6. Kodirova, N. A. (2021). Syntactic and semantic analysis of trivalent syntactic units. *Science and Education*, 2(Special Issue 2), 114-117.
7. Ochilova, N. (2023). SHAPING THE THINKING OF YOUTHS BY PROMOTING THE IDEA OF NATIONAL RECOVERY-NATIONAL UPGRADE. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(10), 75-79.
8. Очилова, Н. (2023). РОЛЬ ЧТЕНИЯ В ДУХОВНОМ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(6), 74-77.
9. Очилова, Н. Р. (2023, April). ЯНГИ РЕНЕССАНС ДАВРИДА ЛИДЕРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ ЁШЛАРНИНГ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 2, No. 3, pp. 92-101).
10. Ochilova, N. R. (2023). TYPOLOGY OF CIVILIZATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 121-127.
11. Ochilova, N. R. (2023). THE IMPORTANCE OF MORAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 25-28.

12. Ruzimuratovna, N. O. (2023). Shaping the Thinking of Youths by Promoting the Idea of National Recovery-National Upgrade. *American Journal of Science on Integration and Human Development*, 1(2), 40-42.
13. Адилова, Г. А. (2012). Этнографизмы в языке казахов, проживающих в Каракалпакстане. *Вестник Челябинского государственного университета*, (2 (256)), 5-8.
14. Agytaevna, A. G. (2023). FUNCTION OF LANGUAGE IN PRESERVATION OF NATIONAL ETHNO-CULTURAL INFORMATION (on the example of materials of the Kazakh language). *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 151-156.
15. Адилова, Г. А. ҚАРАҚАЛПАҚСТАН ҚАЗАҚТАРЫ ТІЛІНДЕГІ ТОЙ ДӘСТҮРЛЕРІНЕ БАЙЛАНЫСТЫ ЖЕРГІЛІКТІ ЭТНОГРАФИЗМДЕР.
16. Seytniyazova, G., & Atashova, F. (2022). THE CATEGORY OF PLURALITY IN RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(1), 74-78.
17. Gafurov, B. Z. (2022). Analysis of medical version in texts of advertising of hygiene products in the fight against COVID-19 (on the material of Russian and Uzbek languages). *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*.
18. Gafurov, B. Z. (2021). Study of advertising texts in Russian on the topic of medical terminology. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*.– Indonesia, 26(1), 586-590.
19. Гафуров, Б. З. (2021). АНАЛИЗ ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ АКЦЕНТНЫХ ФОНОВАРИАНТОВ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ РУССКОГО ЯЗЫКА. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(1-1).
20. Gafurov, B. Z. (2021). Medical terminology in advertising text. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(3), 30-40.
21. Gafurov, B. Z. Similarities and differences of segment background options for Russian, Uzbek and English languages. *Monografia pokonferency jnascience, Research, development*, 26, 17-19.
22. Гафуров, Б. З. Тексты с Фоностилистическими Фоновариантами И Их Перевод (На Материале Узбекского Языка). *Ilm Nam Jamiyet*, 72.
23. Otaqulovich, K. K. (2021). MUSEUM EXHIBITIONS AND EXHIBITIONS IN UZBEKISTAN ARE WORLDWIDE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 342-346.
24. Khosiyatov, K. O. (2020). The influence of the museum of local lore in Karshi on the spirituality of young people. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 06 (86), 686-692.
25. Khosiyatov, K. O. (2019). HISTORY OF KASHKADARYA MUSEUM CULTURE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 223-226.
26. Хосиятов, Х. О. (2023). Қашқадарё Ва Сурхондарё Вилюятлари Музейларида Қўрғазмаларни Ташкил Этиш Жараёнлари. *Miasto Przyszłości*, 36, 225-229.
27. Хосиятов, Х. (2023). Жанубий Ўзбекистон музейларида халқаро ташкилотлар ва хорижий мамлакатлар билан ўзаро алоқалар. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 509-512.
28. www.ziyouz.com